

CHUST MADANIYATI ME'MORCHILIK VA BINOKORLIK USLUBLARINING O'RGANILISHI

Boboyev Doniyor Xaydaraliyevich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar
universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Chust madaniyatining me'morchilik va binokorlik uslublarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tezisda, Chust shahri va uning atrofidagi hududlarda mavjud bo'lgan an'anaviy me'moriy uslublar, ularning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy arxitektura bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Chustning me'moriy an'analari, o'ziga xos naqshlar, qurilish materiallari va uslublarini o'rganish orqali, uning madaniy merosi va me'morchilik san'ati haqida chuqurroq tasavvur hosil qilinadi. Shuningdek, Chustdagi binolar va inshootlarning arxitektura elementlari va ularning zamonaviy me'morchilik bilan aloqasi ko'rib chiqiladi.

***Kalit so'zlar:** Chust madaniyati, Dalvarzintepa, kapa uylar, qarorgoh, karkas, me'morchilik uslublari, binokorlik, arxitektura, tarixiy rivojlanish, an'anaviy naqshlar, qurilish materiallari, zamonaviy arxitektura, madaniy meros, me'morlik san'ati.*

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the architectural and building styles of the Chust culture. This thesis analyzes the traditional architectural styles existing in the city of Chust and its surrounding areas, their historical development and integration with modern architecture. By studying the architectural traditions, unique patterns, building materials and styles of Chust, a deeper understanding of its cultural heritage and architectural art is formed. The architectural elements of buildings and structures in Chust and their relationship with modern architecture are also considered.

***Keywords:** Chust culture, Dalvarzintepa, kapa houses, residence, frame, architectural styles, building, architecture, historical development, traditional patterns, building materials, modern architecture, cultural heritage, architectural art.*

KIRISH

Chust madaniyatining turli yodgorliklarida (Dalvarzin, Chust, O'sh, Xo'jabog', Bo'ztepa, Sassiabo'ka, Qoshoqtepa va b) uy-joy qoldiqlari o'rganilgan. Ushbu uy-joy qoldiqlari me'moriy yechimga ko'ra to'rt xilga bo'linadi.[1]

1. Yengil qora uylar (kappa ko'rinishidagi). Bu xil uy-joylar Chust va Dalvarzinda topilgan. Ular faqat o'lchamlari va bajargan vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanishi mumkin. V.I. Sprishevskiy bunday kapa uylarni yodgorlikning dastlabki davriga oid deb hisoblaydi. Bunday turar-joylardan hozirgidagi kabi vaqtinchalik, ya'ni iqlim issiq paytlarda foydalanilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki bunday uylar etnografiyadan bizlarga yaxshi ma'lum.

2. Sinchkori uylar-Dalvarzin, Chust, O'sh kabi yodgorliklarda qayd qilingan. Ular oldingi uylardan farq qilib "karkas"-yog'och sinch ustiga devor tiklangan. Bu ikkala birinchi va ikkinchi ko'rinishdagi turar joylar bir-biriga yaqin va o'zaro bog'langan. Yengil uylar va sinchkori uylar an'anasi uzoq davom etib, to hozirgi qadar Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatlarida amal qilib kelinmoqda. Chunki bunday uylar foydalanish uchun qulay, arzon va tezda qurib bitkazish mumkin. Shuningdek, "Karkas" usulda tiklangan uylar bugunga qadar Buxoro viloyatida xamda Xitoyning Sharqiy Turkiston hududida ham saqlangan.

3. Yarim yerto'laga o'xshash uylar Dalvarzin, Chust va O'shda aniqlangan. Mazkur uchala yodgorlikdagi yarim yerto'lalar bir-birilaridan qisman farqlanadi. Xususan, Chustda ular shaklan yumaloqqa yaqin, o'rtada tayanch ustuni yo'q. Dalvarzinda to'rtburchak shaklda hamda yon devorlari g'isht bilan ko'tarilgan, o'rtada tayanch ustunlari mavjud. Ular satxida maishiy chiqit qoldiqlari, o'choqlar, shuningdek, o'rta asrlarga oid dasturxonlarni eslatadigan dasturxon qayd etilgan. O'sh qarorgohida mayda va katta diametrli ustunlar tizmi aniqlangan bo'lib, ular qurilish texnikasini aniqlashda muhim manba vazifasini o'taydi. Albatta, ustunlar saqlanmagan, faqat ularning o'rni chuqurchalar ko'rinishida aniqlangan. Katta diametrdagilar markaziy ustunlar bo'lib, qolganlari atrof devorlarni ushlash uchun xizmat qilgan. Y.A. Zadneprovskiyning ta'kidlashicha, bu hududdan eng ko'p yarim yerto'lalar topilgan. O'shda ularning ikki xili uchraydi:

1. Uy-joylar.

2. Xo'jalik yordamchi vazifalarni bajargan yerto'lalar.

O'z navbatida, birinchi xil yerto'lalar rejasiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

1. To'rtburchak rejali;

2. Yumaloqqa yaqin rejali yarim yerto'lalar.

Arxeologlar fikriga ko'ra, bu shakldagi uy-joylarning barchasi yodgorliklarning ilk davriga to'g'ri keladi. Ikkinchi ko'rinishdagi yerto'lalar Kavkaz hududidagi yerto'lalarga o'xshab ketadi. Ammo ular biroz oldingi-enolit va bronza davrlariga oiddir.

4. G'isht va paxsadan ishlangan uylar. Ularning soni kamchilikni tashkil qiladi. Chustda aniqlangan bunday uylar yuqoridan qaralganda to'rtburchak shaklda bo'lib,

devorlarning uzunligi bir xil bo'lmagan. Bu ko'rinishdagi uy-joylar Dalvarzintepa manzilgohidan ham topilgan. Bunday uylar har biri uch yoki to'rt xonali uy-joylardan iborat bo'lgan bo'lib, umumiy maydoni 140 kv.metr gacha boradi.[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu uy-joylar atrofida yoki ular tarkibida ko'plab o'ralar aniqlangan. Ularning soni juda ko'p va shakllari ham xilma-xil. O'ralar yumaloq, ovalsimon va to'rtburchak rejalarga ega. Mutaxassislar e'tirofiga ko'ra, dastlabki yillari ualrning joylashuvidagi xatolik oqibatida o'ralar eng quyi qatlamlar bilan bog'lab talqin etilgan[3].

Chust davri tadqiqotchisi B.X.Matboboyevning fikricha, buning sababi shundaki, madaniy qatlamlardagi o'ralarning boshlanish nuqtasini aniqlashda yo'l qo'yilgan xatolik natijasida o'ralar barchasi yodgorlikning ilk davriga taaluqli deb qaralgan[4]. B.X.Matboboyev tadqiqotlari natijasida o'ralarning har bir davriy bosqichlari aniqlashga erishildi. Natijada ularning bajargan vazifasi va davriga jiddiy tuztish va aniqlik kiritildi.

Ma'lum bo'lishicha, o'ralar asosan xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, birinchi navbatda ulardan g'alla va don mahsulotlarini saqlashda foydalanilgan. Ayrim o'ralar tubidan qamishdan to'qilgan buyra bilan birga har xil don qoldiqlari topilganligi buni tasdiqlaydi. Shu joyda qadimshunos olim M.P.Gryaznovning Chust madaniyati o'ralari haqidagi fikrlari o'rinli ekanligini qayd etish lozim. O'ralar soni va ular hajmini o'rganish orqali ushbu olim chustliklardagi "ortiqcha" g'alla miqdorini hisoblab chiqqan va o'ralarda 400 dan 1000 kg. gacha g'alla saqlangan, degan fikrni ilgari surgan[5]. Bu hol qadimgi chustliklarda ayirboshlash qilinadigan yoki sotiladigan g'alla mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bunga qo'shimcha qilib aytish kerakki, O'rta Osiyo xalqlari xo'jaligida g'alla va boshqa oziq-ovqat maxsulotlarini o'ralarda saqlash udumi yaqin vaqtlargacha amal qilib kelgan. Ortiqcha g'allani hamda qish uchun maxsulotlarni bunday saqlash usuli o'zining amaliy qulayligi va soddaligi bilan uzoq vaqt aholi e'tiborini tortib kelgan. Vaqti-vaqti bilan zaruratga qarab yangi o'ralar kovlangan. O'ralarning ko'plaridan chiqindi tashlash uchun ham foydalangan. Ba'zi katta o'lchamdagi o'ralarda sopol idishlar pishirilgan. Bu borada ko'plab etnografik ma'lumotlar to'plangan bo'lib, jumladan, Y.M.Pesherova ma'lumotiga ko'ra, bu usulda sopol pishirish ayrim tog'li tumanlarda rasm bo'lgan[6].

Demak, o'ralarni o'rganish natijasida ularning quyidagi turlarini ajratish imkoniyati paydo bo'ldi.

- 1.G'alla saqlaydigan maxsus o'ralar.
- 2.Ishlab chiqarishda (sopol pishirish yoki boshqa maqsadlarda) ishlatiladigan o'ralar.
- 3.Chiqindi tashlanadigan o'ralar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda aholi maskanlari daryo va soy bo'ylarida joylashib, alohida voha tumanlarni tashkil qilgan. Ziroatchilar tomonidan xo'jalik yuritish maqsadida o'zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan. Vohalarda sug'arish tizimi, xosildor yerlar va yaylovlar mavjud bo'lgan. Vohalarning tuzilishi, ularning umumiy maydoni dehqonchilik hududlari, ekinzorlar va sug'orish tarmoqlarining chegaralari bilan bog'langan. Jamoalarning asosiy mashg'ulotlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlashdan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham Chust madaniyati uy-joylarida dehqonchilik bilan bog'liq ko'pdan-ko'p mehnat qurollari va uy-joylar qurilishidagi turli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Матбабаев Б.Х., Иванов Г.П. Новое о типах жилищ на последних чусткой культуры в связи с раскопами Дальварзина // Археологические исследования в Узбекистане 2003 год.-Ташкент, 2004. Вып 4,-С101-108.
2. Заднепровский Ю.А. Укрепления чустких поселений ...- С.7 Ўша муаллиф. Чусткая культура Ферганы...С 13-14.
3. Спришевский В.И. Чусткое поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы): Автореф. дис. ... канд. истор. наук.-Ташкент, 1963.-С. 7.
4. Матбабаев Б.Х. Локальные варианты... -С 12.; Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Основные итоги изучения Чусткого поселения в Фергане (1950-1952 гг) // ИМКУ.-Ташкент, 1984 Вып. 19. С 50-51.
5. Грязнов М.П. Чусткая культура в Фергане // История Киргизии.-1963. Т.-С. 61-63.
6. Sayfullayev, V. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA DASTURIY MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHDA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTON VA HINDISTON MISOLIDA. AXBOROT-KOMMUNIKACIYA TEXNOLOGIYALARI VA TELEKOMMUNIKACIYALARI SOXASIDA.
7. Sayfullayev, V. (2022). ЎЗБЕКИСТОН-ҲИНДИСТОН: СТРАТЕГИК ШЕРИКЧИЛИКНИНГ ЯНГИ ФОРМАТДА РИВОЖЛАНИШИ. ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР САММИТИ.
8. JO'RABOYEV, N. Y., & SAYFULLAYEV, V. D. O. G. L. (2021). KO'HNA VA NAVQIRON TOSHKENT BOZORLARI. In *Uzbek Conference Publishing Hub* (Vol. 1, No. 01, pp. 83-86).
9. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М., Юлдашев Б Исследования памятников Ферганы эпохи поздней бронзы (городища Далварзин, Ашкалтепа) // Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 годы.-Ташкент, 2006 Вып 5. –С143-152.